

**QORAQALPOG'ISTON
RESPUBLIKASI
VAZIRLAR KENGASHINING
QARORI**



**QARAQALPAQSTAN
RESPUBLIKASI
MINISTRLER KENESININ
QARARI**

2023 - yil 10 - noyabr

393-13-0-Q/23

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashi

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-noyabrdagi
“Karate (WKF) sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-356-sonli qarori
haqida**

Karate (WKF) sport turi yoshlar orasida katta ommalashuv bilan foydalanayotganligini hisobga olib uni yanada rivojlantirish, karate bo'yicha zamonaviy sport obyektlari va inshootlarini barpo etish, shuningdek, milliy terma jamoalarimizning nufuzli sport musobaqalarida yuqori natijalarga erishishiga ko'maklashish, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-noyabrdagi “Karate (WKF) sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-356-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi **qaror qiladi:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-noyabrdagi “Karate (WKF) sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-356-sonli qarori **rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.**

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan:

a) 2023-2026-yillarda karate (WKF) sport turini rivojlantirish dasturi 1-ilovaga;

b) 2023-2026-yillarda karate (WKF) sport turini rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

d) O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi, O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasi va O'zbekiston Milliy paralimpiya qo'mitasining:

O'zbekiston karate milliy federatsiyasini O'zbekiston karate (WKF) assotsiatsiyasi (keyingi o'rinlarda - karate assotsiatsiyasi) etib qayta tashkil qilish;

joylarda ishlarni rivojlantirish va muvofiqlashtirish, uslubiy qo'llab-quvvatlash va monitoring qilish maqsadida karate assotsiatsiyasining hududiy bo'linmalarini tashkil etish;

jismoniy imkoniyati cheklangan va nogironligi bo'lgan shaxslar o'rtasida parakarateni rivojlantirish va ularning bu boradagi iqtidorini har tomonlama qo'llab-quvvatlash uchun O'zbekiston Milliy paralimpiya qo'mitasi tuzilmasida parakarate bo'limini tashkil etish to'g'risidagi takliflari ma'qullanganligi;

e) O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi tizimida O'zbekiston karateni rivojlantirish markazi tashkil etilganligi;

f) karate bo'yicha kompleks musobaqalarga sportchilarni tayyorlash, ularning natijadorligini oshirish hamda Karate assotsiatsiyasi faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida (respublika va xalqaro sport

musobaqalari, o'quv-mashg'ulot yig'inlari, Osiyo hamda jahon chempionatlari va kuboklari, Karate assotsiatsiyasining saqlash xarajatlari uchun) 2024-yildan boshlab har yili 5 milliard so'mdan mablag' ajratish;

bunda, ushba mablag'larning 3 milliard so'mi sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining Respublika kalendar rejasi hamda qolgan qismi O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasiga Davlat bujeti va homiylar tomonidan ajratiladigan mablag'lar hisobidan qoplanishi belgilanganligi;

g) 2024-yildan boshlab har yili ana'naviy tarzda:

respublikaning barcha hududlarida 7-oktabr kuni – Butunjahon karate kuniga bag'ishlangan Karate festivali;

karate va parakarate bo'yicha "Uzbekistan Open" xalqaro turniri;

karate bo'yicha Xalqaro karate federatsiyasining (WKF) tasdiqlangan norma va qoidalarida belgilangan yosh toifalari bo'yicha uch bosqichli (tuman/shahar, hududiy va respublika) chempionatlari va kuboklari;

karate bo'yicha davlat sport-ta'lim muassasalari o'rtasida "O'zbekiston chempionati" musobaqasi o'tkazilishi;

g') 2024/2025-o'quv yilidan boshlab:

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida karate bo'yicha bakalavriat ta'lim yo'nalishiga va magistratura mutaxassisligiga amaldagi o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari joriy o'quv yiliga nisbatan ikki baravarga oshirilishi;

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining Nukus va Farg'ona filiallarida karate bo'yicha o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari nazarda tutilishi **inobatga olinsin**.

3. Qoraqalpog'iston Respublikasida 2023-2026-yillarda karate (WKF) sport turini rivojlantirish dasturi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Qoraqalpog'iston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi (A.Allanazarov), Nukus shahar va tumanlar hokimliklari:

yoshlar o'rtasida mahalliy va hududiy miqyosda karate bo'yicha musobaqalarni muntazam ravishda tashkil qilsin;

mahalliy o'quv-mashg'ulot yig'inlari va sport musobaqalarida hududiy sport jamoalari ishtirok etishini ta'minlasin.

5. Qoraqalpog'iston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi (A.Allanazarov)ga ikki oy muddatda:

Karate assotsiatsiyasining hududiy bo'limi uchun tegishli shart-sharoitlar yaratish, moliyaviy va moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga ko'maklashish uchun yirik tashkilot va homiylarni birlashtirish;

Davlat aktivlarini boshqarish agentligining Qoraqalpog'iston Respublikasi hududiy boshqarmasi (M.Radjabov) bilan birgalikda karate assotsiatsiyasining hududiy bo'limiga qonunchilikda belgilangan tartibda bino-inshoot ajratilishini ta'minlash topshirilsin.

6. Qoraqalpog'iston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi (A.Allanazarov) karate sport turi bo'yicha hudud terma jamoasning asosiy tayyorgarlikni olib borishi uchun unga sportning yakkakurash turlariga ixtisoslashtirilgan sport maktabi inshootlarini asosiy baza sifatida birlashtirish choralarini ko'rsin.

7. Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (G.Kojabaeva), Qoraqalpog'iston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi (A.Allanazarov), Karate assotsiatsiyasining

hududiy bo'limi bilan birgalikda uch oy muddatda zarur shart-sharoitlar mavjud bo'lgan umumiy o'rta ta'lim maktablarida sport maktablari va klublarining trenerlarini jalb etish orqali darsdan tashqari alohida karate seksiyalari va to'garaklarini tashkil etish topshirilsin.

8. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o'rinbosari B.Otemuratov zimmasiga yuklansin.

**Qoraqalpog'iston
Respublikasi Vazirlar
Kengashi Raisi**



F. Ermanov

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar
Kengashining
2023-yil 10-noyabrdagi
393-13-0-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Qoraqalpog'iston Respublikasida 2023-2026-yillarda karate (WKF) sport turini rivojlantirish dasturi

№	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmlari	Amalga oshirish muddatlari	Moliyalashtirish manbalari	Mas'ul ijrochilar
----------	-----------------------------	-------------------------------------	-----------------------------------	-----------------------------------	--------------------------

1.	karate bo'yicha iqtidorli yoshlarni aniqlash, tanlash va saralash (seleksiya) ishlarini takomillashtirish.	<p>1. Iqtidorli yoshlarni hududlardagi seleksionerlarni jalb qilgan holda aniqlash.</p> <p>2. Saralab olish (seleksiya) yo'li bilan aniqlangan iqtidorli yoshlarni kelajakda oliy mahoratli karate bo'yicha sportchi bo'lib shakllanishi uchun sport maktablariga yo'naltirish.</p> <p>3. Ta'lim muassasalarida ushbu yoshlarning o'qish va shug'ullanish jarayonini doimiy nazoratga olgan qolda monitoring olib borish.</p> <p>4. Olimpiya va jahon chempionlari, mashhur sportchilar hamda boshqa xalqaro darajadagi mutaxassislar tomonidan yosh karatechilar bilan mahalla, tuman va shaharlarda doimiy ravishda mahorat darslarini tashkil qilish.</p> <p>5. Tuman (shahar) saralash bosqichlarining uzluksiz o'tkazilishini joriy etish.</p> <p>6. Seleksionerlar tomonidan tuman (shahar) sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining kalendar rejasi asosida o'tkazilayotgan musobaqalarda iqtidorli yoshlar ro'yxatini shakllantirish hamda ularning harakatlanish monitoringini yuritishni yo'lga qo'yish..</p>	2023-2026-yillar davomida	Ijrochilar va homiylar mablag'lari	Qoraqalpog'iston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi (A.Allanazarov), Karate assotsiatsiyasining hududiy bo'limi (A.Mambetkarimov), Nukus shahar va tumanlar hokimliklari
----	--	---	---------------------------	------------------------------------	--

2.	Olis va chekka hududlarda joylashgan sport muassasalarining karate bo'yicha bo'limlarini qo'llab-quvvatlash.	1. Olis va chekka hududlarda joylashgan sport muassasalarining karate bo'yicha bo'limlarini qo'llab-quvvatlashni nazarda tutuvchi chora-tadbirlarni belgilash. 2. Olis va chekka hududlarda joylashgan sport muassasalarining karate bo'yicha bo'limlari faoliyatini tahlil qilish va natijadorlikni baholash.	2024-yil fevral	Ijrochilar va homiylar mablag'lari	Qoraqalpog'iston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi (A.Allanazarov), Karate assotsiatsiyasining hududiy bo'limi (A.Mambetkarimov)
3.	"Karate hamma uchun" dasturini amalga oshirish.	1. Karate sportini ta'lim muassasalari, yoshlar o'rtasida keng targ'ib qilish orqali ommalashtirish, aholining ushbu sport turiga qiziqishini oshirish. 2. Ta'lim muassasalari, mahallalarda karate bo'yicha to'garaklarni tashkil qilish. 3. Karate bo'yicha sport klublari faoliyatini yanada kengaytirish, ularni qo'llab-quvvatlash. 4. Karate infratuzilmasini kengaytirish maqsadida investisiya va grant mablag'larini jalb qilish. 5. Jismoniy imkoniyati cheklangan va nogironligi bo'lgan shaxslarning karate bilan bepul shug'ullanishlari uchun qulayliklar yaratish va ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash.	2024-yil fevral	Ijrochilar va homiylar mablag'lari, "Yoshlar daftari" va "Ayollar daftari" jamg'armalari mablag'lari	Qoraqalpog'iston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi (A.Allanazarov), Yoshlar ishlari agentligi Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi (P.Maxsetbaev), Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (G.Kojabaeva), Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining Qoraqalpog'iston Respublikasi hududiy boshqarmasi (N.Kayupov), Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi (S.Turmanov), Karate assotsiatsiyasining hududiy bo'limi (A.Mambetkarimov), shahar va tumanlar hokimliklari

4.	Karate bo'yicha trener va mutaxassislar salohiyatini oshirish.	Karate bo'yicha trener va mutaxassislarni o'quv-seminar, malaka oshirish kurslarini yuborish.	2024-yil yanvardan boshlab, doimiy	-	Qoraqalpog'iston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi (A.Allanazarov), Karate assotsiatsiyasining hududiy bo'limi (A.Mambetkarimov)
5.	Karate bo'yicha mahoratli sportchilarni tayyorlash.	1. Karate bo'yicha sportchilarga daraja (belbog') berish ularning salohiyatini baholash bo'yicha hududiy komissiyasi faoliyatini yo'lga qo'yish hamda majburiyatlarini belgilash. 2. Joylarda sportchilar salohiyatini baholash va ularga daraja (belbog') berish bo'yicha sinovlarni qabul qilish jarayonlarini yagona reja-grafik asosida o'tkazishni yo'lga qo'yish.	2023-yil dekabr	Ijrochilar va homiyilar mablag'lari	Qoraqalpog'iston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi (A.Allanazarov), Karate assotsiatsiyasining hududiy bo'limi (A.Mambetkarimov)
6.	An'anaviy tarzda karate bo'yicha erkaklar va ayollar jamoalari o'rtasida (olimpiya va xalqaro vazn toifalari bo'yicha) xalqaro sport musobaqalarini o'tkazish.	1. 7-oktabr kuni – Butunjahon karate kuniga bag'ishlangan karate festivalini o'tkazish. 2. karate va para karate bo'yicha "Uzbekistan Open" xalqaro turnirini o'tkazish. 3. Mazkur musobaqalar g'olib va sovrindorlarini munosib rag'batlantirish.	2024-yildan boshlab har yili aprel Musobaqalar yakunlari bo'yicha	Sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining respublika kalendar rejasiga ajratilgan mablag'lar doirasida	Qoraqalpog'iston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi (A.Allanazarov), Karate assotsiatsiyasining hududiy bo'limi (A.Mambetkarimov), Nukus shahar va tumanlar hokimliklari